


NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 694,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati jahonning 63 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hisssasi Xitoy Xalq Respublikasida (18,4 %), Kanada (16,0 %), Rossiya Federatsiyasida (15,7 %), AQShda (10,8 %) va Litvada (8,1 %) qayd etilgan.



**NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**
(2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	127,5	67,8	59,7	18,4
Kanada	111,2	107,6	3,6	16,0
Rossiya Federatsiyasi	109,0	19,0	90,0	15,7
AQSh	74,7	0,6	74,1	10,8
Litva	56,5	7,4	49,1	8,1
Turkiya	43,2	20,6	22,6	6,2
Qozog'iston	35,5	9,0	26,5	5,1
Koreya Respublikasi	16,6	0,1	16,5	2,4
Chexiya Respublikasi	16,3	0,2	16,1	2,3
Yaponiya	15,5	-	15,5	2,2

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Turkmaniston va Qirg'iz Respublikalari bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Litva, Turkiya, Koreya Respublikasi, Chexiya Respublikasi va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Tashqi savdo aylanmasi	694,9	110,9	100,0
MDH davlatlari	180,5	105,6	26,0
Boshqa davlatlar	514,4	112,9	74,0



**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA
TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI**
(2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Tashqi savdo aylanmasi hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	694 882,3	110,9
Navoiy sh.	448 846,7	114,7
Zarafshon sh.	9 392,2	83,0
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	158 969,7	119,5
Konimex	1 615,0	51,5
Qiziltepa	12 378,7	48,2
Navbahor	16 722,9	67,8
Nurota	8 378,0	104,3
Tomdi	3 694,2	5,9 m
Uchquduq	3 249,3	2,4 m
Xatirchi	25 048,3	2,8 m
Bo'linmaydigan hajm	6 587,3	35,7

2021- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasi hajmi 694,9 mln. AQSh dollarini 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (8,1 mln. AQSh dollari), Kanada (104,0 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (8,9 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (4,8 mln. AQSh dollari), Singapur (3,9 mln. AQSh dollari) va Qirg'iz Respublikasi (2,6 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	193,1	91,0	127,5
Eksport	47,3	14,9	67,8
Import	145,8	76,1	59,7
Saldo	-98,5	-61,2	8,1
Kanada	0,4	65,4	111,2
Eksport	0,3	65,2	107,6
Import	0,1	0,2	3,6
Saldo	0,2	65,0	104,0
Rossiya Federatsiyasi	106,0	84,6	109,0
Eksport	21,9	21,6	18,9
Import	84,1	63,0	90,1
Saldo	-62,2	-41,4	-71,2
AQSh	21,4	31,2	74,7
Eksport	0,1	0,1	0,7
Import	21,3	31,1	74,0
Saldo	-21,2	-31,0	-73,3
Litva	8,3	42,7	56,5
Eksport	3,2	2,4	7,4
Import	5,1	40,3	49,1
Saldo	-1,9	-37,9	-41,7
Turkiya	67,8	35,1	43,2
Eksport	10,6	17,3	20,6
Import	57,2	17,8	22,6
Saldo	-46,6	-0,5	-2,0
Qozog'iston	34,8	32,2	35,5
Eksport	5,0	3,5	9,0
Import	29,8	28,7	26,5
Saldo	-24,8	-25,2	-17,5

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Koreya Respublikasi	46,4	40,1	16,6
Eksport	0,1	-	0,1
Import	46,3	40,1	16,5
Saldo	-46,2	-40,1	-16,4
Chexiya Respublikasi	7,7	5,1	16,3
Eksport	1,3	0,1	0,2
Import	6,4	5,0	16,1
Saldo	-5,1	-4,9	-15,9
Yaponiya	88,2	3,2	15,5
Eksport	5,3	0,2	-
Import	82,9	3,0	15,5
Saldo	-77,6	-2,8	-15,5
Ukraina	1,5	10,9	14,3
Eksport	1,1	1,4	0,9
Import	0,4	9,5	13,4
Saldo	0,7	-8,1	-12,5
Turkmaniston	7,2	13,9	10,9
Eksport	2,1	13,5	9,9
Import	5,1	0,4	1,0
Saldo	-3,0	13,1	8,9
Germaniya	117,4	19,7	9,3
Eksport	0,5	0,2	-
Import	116,9	19,5	9,3
Saldo	-116,4	-19,3	-9,3
Italiya	58,8	3,1	6,3
Eksport	-	0,1	-
Import	58,8	3,0	6,3
Saldo	-58,8	-2,9	-6,3


Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Belarus Respublikasi	76,8	0,6	5,9
Eksport	0,3	0,3	0,9
Import	76,5	0,3	5,0
Saldo	-76,2	-	-4,0
Eron Islom Respublikasi	3,1	2,2	5,4
Eksport	1,8	-	0,7
Import	1,3	2,2	4,7
Saldo	0,5	-2,2	-4,0
Afg'oniston	0,6	0,5	4,8
Eksport	0,6	0,5	4,8
Import	-	-	-
Saldo	0,6	0,5	4,8
Buyuk Britaniya	3,6	3,3	4,0
Eksport	-	0,2	-
Import	3,6	3,1	4,0
Saldo	-3,6	-2,9	-4,0
Singapur	1,3	2,8	3,9
Eksport	0,6	2,6	3,9
Import	0,7	0,2	-
Saldo	-0,1	2,4	3,9
Qirg'iz Respublikasi	13,3	27,8	3,4
Eksport	12,9	27,5	3,0
Import	0,4	0,3	0,4
Saldo	12,5	27,2	2,6

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH
MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING
HAJMLARI DINAMIKA**

(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-iyul oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 112,9 % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 74,0 % ni tashkil etdi.


**NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI
(2021- yil yanvar-iyul)**

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 261,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (66,2 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (20,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,0 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 5,0 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari - 2,1 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,5 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 66,2 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 20,7 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 0,2 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 2,9 %
- Xizmatlar - 2,4 %



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)


XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da

Jami eksport	261,7	103,3	100,0	44,0	64,1	100,0	217,7	117,8	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,1	2,0 m	5,0	6,1	110,6	13,8	7,0	6,7 m	3,2
Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari	5,5	31,7	2,1	3,4	21,1	7,9	2,1	170,7	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,4	142,3	0,5	0,1	38,6	0,1	1,3	153,2	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	173,3	100,0	66,2	8,1	57,9	18,3	165,2	103,7	75,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	54,1	143,9	20,7	16,4	79,5	37,2	37,7	2,2 m	17,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,5	19,0	0,2	0,1	52,9	0,2	0,4	16,2	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	7,6	65,7	2,9	7,5	66,6	17,1	0,1	31,3	0,1
Xizmatlar	6,2	176,7	2,4	2,3	3,7 m	5,4	3,9	133,7	1,7

2021- yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda xizmatlar eksporti tarkibida o'sish kuzatildi.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 261,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-iyul, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0

shu jumladan:

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,1	2,6	5,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari	6,2	7,0	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	0,4	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	63,0	68,4	66,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,2	14,8	20,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	3,7	0,9	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	0,4	4,5	2,9
Xizmatlar	3,2	1,4	2,4

2021- yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi 7,5 punktga oshib 20,7 % ni, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar 3,2 punktga oshib 66,2 % ni, turli xil tayyor buyumlar 2,5 punktga oshib, 2,9 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Eksport hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	261 679,8	103,3
Navoiy sh.	191 930,5	103,1
Zarafshon sh.	2 642,1	138,5
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	21 317,3	116,8
Konimex	172,4	18,6
Qiziltepa	7 361,9	40,3
Navbahor	12 104,1	78,1
Nurota	3 072,3	2,1 m
Tomdi	712,9	164,9
Uchquduq	1 051,7	111,3
Xatirchi	19 895,5	3,3 m
Bo'linmaydigan hajm	1 419,1	39,9

2021- yil yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 261,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % kuzatildi.





NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Eksport hajmi	261,7	103,3	100,0
MDH davlatlari	44,0	64,1	16,8
Boshqa davlatlar	217,7	117,8	83,2




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA
XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Eksport ulushining dinamikasi joriy davrda MDH mamlakatlarida 16,8 % va boshqa xorijiy davlatlar bilan 83,2 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-iyul, % da)



2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 41,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (25,9 %), Turkiya (7,9 %), Rossiya Federatsiyasi (7,2 %), Turkmaniston (3,8 %), Qozog'iston (3,4 %) va Litva (2,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,1 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi bir pog'onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 34 tani tashkil etdi.




**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-iyuliga nisbatan, % da	O'zni
	2020- y.	2021- y.		
Kanada	65 174,8	107 629,9	165,1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	14 902,7	67 774,6	4,5 b	2
Turkiya	17 254,4	20 557,9	119,1	3
Rossiya Federatsiyasi	21 604,2	18 949,3	87,7	4
Turkmaniston	13 474,0	9 903,1	73,5	5
Qozog'iston	3 529,5	9 005,3	2,6 b	6
Litva	2 364,2	7 365,0	3,1 b	7
Afg'oniston	532,2	4 837,0	9,1 b	8
Singapur	2 559,3	3 857,4	150,7	9
Qirg'iz Respublikasi	27 545,4	3 017,9	11,0	10
Pokiston	85,0	1 375,4	16,2 b	11
Tojikiston	482,4	1 168,2	2,4 b	12
BAA	679,8	1 025,6	150,9	13
Belarus Respublikasi	317,5	945,5	3,0 b	14
Ukraina	1 364,0	921,4	67,6	15
Eron Islom Respublikasi	0,0	715,4	-	16
AQSh	81,5	657,7	81,5	17
Chexiya Respublikasi	76,1	224,5	76,1	18
Vetnam	-	175,1	-	19
Niderlandiya	-	143,6	-	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 6,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,4 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 176,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (85,5 %), safarlar (turizm xizmatlari) (9,0 %), moliyaviy xizmatlar (4,8 %), va boshqa xizmatlar (0,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 7 104,1 ming AQSh dollar qiymatli 10 303,9 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,5 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 2,7 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 3 089,6 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 1 439,4 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 1 067,3 ming AQSh dollarini, Navbahor tumanida 615,0 ming AQSh dollarini va Navoiy shahrida 267,8 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (45,7 %), Pokiston (19,4 %), Eron Islom Respublikasi (7,9 %), Qirg'iz Respublikasi (7,2 %) va Belarus Respublikasi (7,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-iyul)

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi *, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	1341,7	683,7	11,6	6765,6	3243,6	45,7
Pokiston	48,0	72,0	1,2	343,8	1375,1	19,4
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	556,0	560,0	7,9
Qirg'iz Respublikasi	1287,9	1751,4	29,7	380,6	511,1	7,2
Belarus Respublikasi	628,8	317,1	5,4	915,2	505,1	7,1
Afg'oniston	521,8	118,2	2,0	448,1	363,8	5,1
Rossiya Federatsiyasi	3739,4	2481,3	42,1	174,4	254,1	3,5
Xitoy Xalq Respublikasi	51,2	50,4	0,9	128,0	119,5	1,7
Iroq	235,2	181,2	3,1	66,9	57,9	0,8
Estoniya	108,0	20,2	0,3	232,0	42,9	0,6
Latviya	173,4	23,3	0,4	220,8	36,2	0,5
Ukraina	59,6	32,7	0,6	51,9	31,6	0,4
Litva	-	-	-	20,7	3,2	0,1

*-qiymat ifodasida


NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyul)

2021- yil yanvar-iyul oylarida import hajmi 433,2 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (57,7 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (14,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,8 %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 3,4 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari - 0,7 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,1 %
- Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar - 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 10,8 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 14,2 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 57,7 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 7,7 %
- Xizmatlar - 5,3 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi 410,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 23,1 mln. AQSh dollariga yetdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)


XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	433,2	116,1	100,0	136,5	133,5	100,0	296,7	109,5	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,8	3,1 m	3,4	12,9	4,5 m	9,4	1,9	92,0	0,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari	3,0	144,4	0,7	1,5	2,3 m	1,1	1,5	107,0	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	161,7	0,1	0,3	3,1 m	0,2	0,2	104,2	0,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	0,2	196,3 m	0,1	0,1	-	0,2	-	24 m	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	46,8	97,6	10,8	10,8	106,0	7,9	36,0	95,3	12,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	61,6	118,6	14,2	50,8	171,3	37,2	10,9	48,7	3,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	249,8	108,5	57,7	29,1	64,9	21,3	220,7	119,1	74,4
Turli xil tayyor buyumlar	33,4	148,7	7,7	27,3	2,6 m	20,0	6,1	51,0	2,1
Xizmatlar	23,1	172,7	5,3	3,7	104,9	2,7	19,4	197,3	6,5

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunolari (57,7 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (14,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,8 %), shuningdek MDH mamlakatlarida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (37,2 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (21,3 %) ga to'g'ri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (74,4 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (12,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,0 b.), xizmatlar (72,7 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (61,7 %), turli xil tayyor buyumlar (48,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi, yoqilg'idan tashqari (44,4 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (8,5 %) o'sgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKA
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-iyul oylarida import hajmi 433,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-iyul, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,9	1,3	3,4
Ichimliklar va tamaki	0,2	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,4	0,6	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,5	12,8	10,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,8	13,9	14,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	68,7	61,7	57,7
Turli xil tayyor buyumlar	7,4	6,0	7,7
Xizmatlar	1,4	3,6	5,4

2021- yil yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda 2020- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi 1,3 % dan 3,4 % gacha, turli xil tayyor buyumlarda 6,0 % dan 7,7 % gacha, xizmatlarda esa 3,6 % dan 5,4 % gacha o'sdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLARI BO'YICHA IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Import hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	433 202,5	116,1
Navoiy sh.	256 916,2	125,2
Zarafshon sh.	6 750,1	71,8
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	137 652,3	120,0
Konimex	1 442,7	65,2
Qiziltepa	5 016,8	67,7
Navbahor	4 618,8	50,5
Nurota	5 305,8	80,5
Tomdi	2 981,2	15,7 m
Uchquduq	2 197,6	5,1 m
Xatirchi	5 152,8	174,9
Bo'linmaydigan hajm	5168,2	34,6

2021- yil yanvar-iyul oylarida import hajmi 433,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ni tashkil etdi.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Import hajmi	433,2	116,1	100,0
MDH davlatlari	136,5	133,5	31,5
Boshqa davlatlar	296,7	109,5	68,5

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 31,5 va 68,5 % ni tashkil etdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Qozog'iston, Turkiya va Koreya Respublikasi) jami importning 78,1 % ini tashkil qiladi, bu 338,3 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-iyul, % da)



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi va Litvadan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 20,8 % ulushi bilan AQSh davlatini (17,1 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-iyul)**


Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-iyuliga nisbatan, % da	O'rni
	2020- y.	2021- y.		
Rossiya Federatsiyasi	62 968,2	90 020,2	143,0	1
AQSh	31 087,9	74 075,5	2,4 m	2
Xitoy Xalq Respublikasi	76 077,0	59 754,6	78,5	3
Litva	40 344,2	49 118,0	121,7	4
Qozog'iston	28 672,7	26 522,1	92,5	5
Turkiya	17 815,7	22 658,6	127,2	6
Koreya Respublikasi	40 078,8	16 497,0	41,2	7
Chexiya Respublikasi	4 988,3	16 098,0	3,2 m	8
Yaponiya	3 024,8	15 465,8	5,1 m	9
Ukraina	9 569,4	13 393,4	140,0	10
Germaniya	19 533,6	9 270,0	47,5	11
Italiya	3 021,5	6 296,8	2,1 m	12
Belarus Respublikasi	333,5	4 980,4	14,9 m	13
Eron Islom Respublikasi	2 234,1	4 733,1	2,1 m	14
Buyuk Britaniya	3 035,3	3 968,6	130,7	15
Kanada	187,5	3 606,6	19,2 m	16
Estoniya	4 871,2	2 711,7	55,7	17
Fransiya	997,4	2 495,6	2,5 m	18
Indoneziya	2 039,1	1 525,7	74,8	19
Hindiston	2 290,0	1 372,6	59,9	20

2021- yil yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha 57 ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2021- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 23,1 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 172,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (67,9 %) va transport xizmatlari (19,5 %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yanvar-iyul, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**

Tel.: (99879) 222-04-36